

SAMARQAND VILOYATINING MADANIY TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURIZM SOHASIDA TUTGAN O'RNI

QarDu Tarix fakulteti katta o'qituvchisi PHD

Ochilova Oydinoy

QarDu Tarix fakulteti 1-kurs talabasi

Hamroqulova Lobar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatining tarixan shakllanish bosqichlari hamda madaniy yodgorliklar tarixi, iqtisodiy jihatdan rivojlanishi va hozirgi kunda ro'y berayotgan o'zgarishlar yoritilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Samarqand shahri, "Samarya", "Samar", Marokanda, Avesto, "Sharq taronalari" musiqiy festivali, "Tavorixi Samarqand", "Shohnoma", "Amir Temur" ordeni, Registon ansambli, Afrosiyob yodgorligi, Buyuk Ipak yo'li, turizm, ziyoratgoh va qadamjolar.

Samarqand dunyoning eng qadimiy va betakror shaharlaridan biri. U o'zida 2750 yillik boy tarix va qadimiy sivilizatsiya namunalarini mujassam etadi. Zarafshon vohasining markazida joylashgan bu noyob shahar azal-azaldan o'troq hayot, sug'orma dehqonchilik, ilm-fan va taraqqiyot markazi bo'lishi bilan birga jahon tarixida insoniyatning madaniy beshiklaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Samarqandning vujudga kelishi, shakllanishi to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar uchraydi. Ko'hna sharq yozma merosining noyob durdonasi Avesto kitobida So'gd o'lkasining ajoyib iqlimi serhosil yerlari haqida so'z boradi. Abul Affos Jafar ibn Muhammad al Mustag'firyning "Tavorixi Samarqand", Abu Hafs Najmiddin Umar bin Muhammad an Nasafiyning "Kitob al-qand fi tarixi Samarqand", Abulfayz Muhammad ibn Abdujamil ibn Abdumalik Haydar as-Samarqandiyning "Qandiyai Xurd" kabi yuzlab tarixiy asarlarida ma'lumot beriladi.

Samarqand so'zining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha taxmin va qarashlar mavjud bo'lib, sharq mualliflari "Samarqand" so'zining birinchi qismi ya'ni "samar" so'zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi, ikkinchi qismi "kent"-(qand)-qishloq, shahar deb hisoblaydilar. Ba'zi yevropalik olimlar, sanskritcha "samarya" yaqin, ya'ni "yig'ilish", "yig'in" so'zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida Samarqand shahri "Marokanda" deb atalgan. "Marokanda"-Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir. Sharq mutaffakkir shoirlari va tarixchilari uni chinakam "Sharq jannatmakon bog'i", "Yer yuzining sayqali", "Jahon mamlakatlarining bezagi", "Sharq olamining bebaho durdonasi" kabi go'zal o'xshatishlar bilan bejiz ta'riflamaganlar.

Respublikamizning janubiy-sharqiy qismida, Pomir-Oloy tog'larining g'arbiy

chekkasida, Zarafshon daryosining o'rta qismida joylashgan Samarqand viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. O'zbeklar, shuningdek tojiklar, rus, ukrain, ozarbayjon, arman, koreys va boshqa millat vakillari ham istiqomat qilishadi. Yozi issiq va qishi iliq kontinental, mo'tadil iqlim viloyat hududi uchun xos sanaladi. 1925-1930 yillarda Samarqand respublika poytaxti bo'lgan. Samarqandni chinakam noyob shahar deb atash mumkin. Samarqand qadimdan o'zining hunarmandchiligi bilan butun dunyoga mashhur. Bu yerlarda shoyi va gilam, so'zana to'qish, zargarlik, kulolchilik, yog'och, ganch hamda boshqa xalq amaliy san'ati turlari davom etib kelmoqda. Birgina Samarqand emas balki Buxoro, Qo'qon, Xiva, Toshkent, Farg'ona kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida ham hunarmandchilikning o'rni katta rol o'ynaydi. Samarqandliklar mohir hunarmandlardir. Ular butun hayoti davomida qo'shni xalqlarni o'zlarining hunarlari, mahoratlari va ijodlari bilan ortda qoldirganlar. Shu sababli Samarqandni "Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining bebaho xazinasi" deb atashadi. Bu yerda o'rta asr me'morchiligining eng buyuk yodgorliklari -g'oyat go'zal me'moriy shakllar va rasmlar saqlanib qolgan bo'lib, ularning har biri alohida e'tiborga loyiqdir. Samarqand qog'ozi butun dunyoga mashhur sanaladi. Samarqand O'rta Osiyodagi kulolchilikning deyarli eng qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va rahbarligida shahar tarixida tarixiy burilish yuz berdi. Istiqolol yillarida kentdagi tarixiy inshootlar rekonstruksiya qilinib, atrofi obodonlashtirildi, bir qancha bog'lar va favvoralar qurildi. Shu tariqa Samarqand betakror sharqona qiyofasi, boy tarixi, har qanday odamni hayratga soladigan noyob obidalari bilan sayyoramizning turli o'lkalarida afsonaviy shahar sifatida shuhrat qozondi. Shu bois bundan 27yil muqaddam buyuk Sohibqiron Amir Temurning 660 yillik yubileyi arafasida buyuk Amir Temur nomi bilan atalgan ordenni birinchi bo'lib olishga sazovor bo'ldi. O'zbekiston birinchi prezidenti Islom karimov 1996-yilning 18-oktyabrida shahar bayrog'iga 1-raqamli "Amir Temur" ordenini ta'qib qo'ydi va 18-oktyabr "Samarqand kuni" deb e'lon qilindi.

Samarqandning madaniy merosi juda ham katta. Asrlar davomida bu shahar Buyuk ipak yo'lining asosiy markazi bo'lib kelgan. XXI asr boshlarida shahar YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga "Samarqand-madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan kiritildi. Hududda 1105ta arxeologik, 670ta me'moriy, 37ta diqqatga sazovor joy, 18ta monumental, 21ta memorial toifaga kiruvchi jami 1851ta moddiy madaniy meros ob'ektlari bor. Samarqandning dunyoga mashhur me'moriy inshootlarining aksariyati Amir Temur va temuriylar davrida XIV-XVI asrlarda barpo etilgan. Ushbu yodgorliklar orasida: ma'lumki, ko'hna Samarqand xarobalari hozirgi kunda Afrosiyob nomi bilan mashhur. Firdavsiyning "Shohnoma" asarida tarixiy shaxs Afrosiyob turon o'lkasining podshosi sifatida tasvirlanadi. Bu shaxs Avestoda Franrasyan, turkiy manbalarda esa Alp Er To'nga nomi bilan qayd etilgan.

Samarqandning shakllanish va rivojlanish davri Afrosiyob yodgorligidan boshlangan. Qadimiy ushbu shahar maskani xarobaga aylangan holda yer qa'rida ko'milib yotibdi. Uning hududi hozirgi shaharning shimoliy qismida bo'lib, 219 gektar maydonni egallaydi. Registon ansambli "yer yuzining sayqali" deb tan olingan. Ushbu yodgorlik Samarqandning o'ziga xos va mos bo'lgan ko'z gusi sanalib, fors tilida "qumli joy", "reg"-qum, "iston"-turish joyi demakdir. Registon ansambli 3 qismdan: g'arbiy qismida Mirzo Ulug'bek madrasasi, sharqiy qismida Sherdor madrasasi hamda Tillakori madrasasidan tashkil topgan. Shuningdek, Amir Temur (Go'ri Amir) maqbarasi, Bibixonim (Amir Temur) jom'e masjidi va Xazrati Xizr masjidi, Shohi Zinda yodgorligi, Xo'ja Doniyor ziyoratgohi, Nodir devonbegi kompleksi, Mirzo Ulug'bek madrasasi va muzeyi, Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui kabi ko'plab me'moriy yodgorliklar ham joylashgan.

Samarqand Buyuk ipak yo'li chorrahasining qoq markazida joylashganligi tufayli nafaqat savdo-sodiq, balki katta ishlab chiqarish va hunarmandchilik markaziga ham aylangan. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand ta'rifiga til o'jiz. Azim va ko'hna boqiy shahar dunyodagi eng chiroyli 50ta ko'hna kentlardan biri sifatida bejizga e'tirof etilgani yuq. O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi milliy musiqa san'atining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'analarini saqlash va rivojlantirish, yosh avlodda san'atga muhabbat tuyg'usini uyg'otish hamda madaniy -ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali tashkil etilgan. Samarqand shahridagi ko'hna Registon maydonida 1997-yildan buyon har ikki yilda bir marotaba avgust oyining 2-yarmi oxirida "Sharq taronalari" musiqiy festivali o'tkazib kelinadi. Festivalga tashrif buyuruvchi va ishtirokchi davlatlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, I festivalda 34ta davlat, II festivalda 36ta davlatdan 250dan ortiq vakillar o'z san'atlarini namoyish etganlar. Festivalga har yili o'tkazilish marosimiga juda katta tayyorgarlik ko'riladi va rang-barang namoyishlarga boy ochilish marosimi dasturi bilan festival boshlanadi. Ochilish marosimida faxriy mehmonlar, jumladan YUNESKO prezidenti, O'zbekiston prezidenti va hokimiyat vakillari o'z nutqlari bilan chiqishadi. Ta'kidlash lozimki, ushbu festivalga tashrif buyuruvchi xorijlik mehmonlar nafaqat, Samarqand shahri balki viloyatning Pstdarg'om, Payariq, Jomboy, Urgut, Toyloq, Samarqand kabi tumanlariga ham kelib hududlarning o'ziga xos betakror jihatlari bilan tanishish baxtiga ham musharraf bo'lishmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyatidagi takrorlanmas tarixiy, madaniy-me'moriy meros obyektlari bilan turistlarni keng tanishtirish uchun qulay shart- sharoitlarni yaratish, ziyorat turizmini jonlantirish, umuman olganda qadimiy zaminning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator korsatmalari asosida Samarqand viloyatida ziyorat turizmini amalga oshirish bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Samarqand viloyatidagi Xo'ja

Ahror Valiy masjid, Urgut tumanidagi G'avsul A'zam, Xo'ja Omon, Chor Chinor ziyoratgohlari, Nurobod tumanidagi Xazrati Dovud ziyoratgohi, Payariq tumanidagi "Chelak Ko'ktepa" tarixiy yodgorligi, Maxdumi A'zam ziyoratgohlari faoliyatini yanada kengaytirish, ularning xorijiy mamlakatlar muzeylari bilan jumladan, ilmiy tadqiqot yo'nalishida hamkorlikni kuchaytirish borasidabir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada esa Yaponiya, Fransiya va Janubiy Koreyaning arxeologik institutlari va muzeylari mutaxassislari bilan aloqalar o'rnatilgan. Samarqand shahrida turistik mavsumda har kuni 100 dan ortiq mehmonxonalarda mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatilishi barobarida ziyoratchilar va sayyohlar oqimining ko'pligini inobatga olgan holda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati hamda "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tomonidan qo'shimcha reyslarni tashkil etish yuzasidan takliflar kiritilgan va samarali hal qilinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, dunyoning eng buyuk shoir va faylasuflari uni -qalb bog'i, sharq durdonasi, dunyoning ko'zgusi va hatto yer yuzining sayqali deb atashsalar ham, ular bu go'zal shaharning barcha go'zalligi va boyliklarini tasvirlab bera olmagan bo'lardilar. Samarqand- o'zida o'tmish va kelajakni bir-biriga uyg'unlashgan tarzda aks ettirgan noyob madaniy markaz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xurshid Davron. "Samarqand xayoli", "Kamalak " nashriyoti, Toshkent-1991.
2. O'zMe.O'n ikkinchi jild. Toshkent, 2006-yil.
3. N.Y.Turdiyeva, O.Y.Yusupov, F.J.Bakiev. "Samarqand tarixiy obidalari", Samarqand -2018
4. Samarqand viloyati madaniy meros obyektlari ro'yxati.
5. Samarqand Tarixi. 1-Tom. Toshkent-1971
6. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 26-aprel.
7. "Kuch-adolatda" gazetasi, 2020-yil 14-avgust.
8. <http://www.samarkandtour.com/attractions/>
9. https://www.sayyoh.com./sayyohlik_yo_nalishi/Samarqand/
10. <https://uzbekistan.travel/uz/o/samarqand-tarixi/>
11. www.ziyouz.com kutubxonasi